

0'zbekistonda Asnaro universitetini tashkil qilish konsepsiyasi taqdimoti bo'lib o'tdi

2021-yil 10 dekabr kuni Yaponiyaning "Yamanasi Gakuin" ta'lim korporatsiyasi va uning hamkorlaridan (DiDi Investments, ERC Institute, Kydon Learning System Institute va Alpha Energy Holdings) tashkil topgan delegatsiya Toshkent shahridagi Turin Politexnika universitetiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida Yaponiyaning "Yamanasi Gakuin" ta'lim korporatsiyasi delegatsiyasi tomonidan O'zbekistonda Asnaro universitetini tashkil qilish konsepsiyasi taqdimoti bo'ldi. Shuningdek uchrashuv davomida hamkorlik masalasi muhokama qilindi va keying uchrashuvda hamkorlik istiqbollari muhokama qilish uchun qayta tashrif rejalashtirildi.





